

TO'NYUQUQ BITIKTOSHINING GAPLARIDA IFODALANILGAN ANIQLOVCHILI, OBYEKTILI, SUBYEKTILI MUNOSABAT

Murodova Umida Boxodir qizi

SamDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada To'nyuquq bitiktoshidagi sintaktik qurilmalar, xususan aniqlovchili, obyektli va subyektli munosabatlarga asoslangan so'z birikmalarining grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda so'zlarning o'zaro bog'lanish mexanizmi, ularning semantik butunlik hosil qilishi hamda izofa munosabatining turli ko'rinishlari misollar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida sifat+ot, son+ot, olmosh+ot, ot+fe'l kabi modellarda yuzaga keladigan bog'lanishlar, kelishik shakllarining belgisi va belgisiz qo'llanishi, shuningdek, holat va harakatni ifodalovchi shakllarning sintaktik roli izohlab berilgan. Muallif To'nyuquq bitiktoshi tili hozirgi turkiy tillarning sintaktik tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib, qadimgi matnlarda so'zlarni bog'lovchi grammatik vositalarning mukammal shakllanganligini ilmiy asosda dalillaydi. Mazkur yondashuv bitiktosh tili va zamonaviy turkiy tilshunoslik o'rtasidagi tarixiy uzviylikni ochib berishda muhim manba vazifasini bajaradi.*

Kalit so'zlar: *To'nyuquq bitiktoshi, qadimgi turkiy til, so'z birikmasi, aniqlovchili munosabat, obyektli munosabat, subyektli munosabat, izofa, sintaksis, kelishik shakllari, grammatik bog'lanish, semantik butunlik.*

Nutqda, gapda so'zlar ma'lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, uning qizi (gapirdi), yosh balo (yugurdi), (maqsadim-shu) kitobni o'qimoq, sekin gapirmoq. Misollardagi har bir juft grammatik butunlikni hosil qilgan bo'lib, yaxlit biroq o'z ichida qismlarga bo'linadigan tushunchani bildiradi. Bu kompleksdagi-qo'shilmadagi so'zlarning aloqasi grammatik jihatdan shakllangandir. Ikki yoki undan mustaqil so'zdan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlik tashkil qilgan har bir kompleks so'z birikmasi sanaladi. Nutqdagi har qanday butunlik (grammatik va semantik butunlik) bir so'z birikmasi bo'lavermaydi, bu bog'lanishning boshqacha ko'rinishlari ham bor.

Har qanday nutq faoliyati gap hosil qilishdan iborat. Nutq jarayonida so'zlovchining ongida bir necha tasavvurlar jami bog'lanadi, shuningdek, tinglovchining ongida ham o'sha tasavvurlarning bog'lanishini qo'zg'atiladi. Ana shu shu tasavvurlar va ularning ifodasi ramzi gapdir.

Qadimgi turkiy tildagi so'z birikmalari mazmun-munosabatlariga ko'ra uch turga bo'linadi: Aniqlovchili munosabat ikki turli bo'ladi: 1) predmet va shaxsni aniqlaydi: chighay bodun-kambag'al xalq; 2) harakatning holatini aniqlaydi: ...taluyqa kichig tagmadim-dengizga bir o' yetib bormadim.

Obyektli munosabat. Grammatik jihatdan tobe soʻz ilova qilinayotgan predmetning hokim soʻz orqali anglashiladigan belgisini anglatadi: türk bağlar türk atın it(t)i- turk beklari tukurcha otini (oʻzlaridan) olib tashladi.

Subyektli munosabat. Tobe soʻz hokim soʻzdan anglashiladigan harakatni bajaruvchini yoki holat egasini anglatadi. Bu munosabat izofaning bir turidir. Izofaning mazkur turi moslashuv orqali hosil qilinadi: aniqllovchi qaratqich kelishigi shaklini, aniqlanmish esa III shaxs egalik qoʻshimchasini oladi: bilgä qaghaning boduni- dono xoqonning xalqi; qaghaning sabin alimating- xoqoningning soʻzini olmading; ol qanim aliming bängüsü- Bu xoqonim (va) elimning mangu (tosh)i.

Ularning har biriga misol keltirib oʻtsak:

biriyäki bodun – janubdagi xalq
 üç otuz baliq – yigirma uch shahar
 küçlüg qağan – kuchli xoqon
 üç qağan – uch xoqon
 yinçgä ärklig – inginchka narsa
 ol sabığ – shu xabarni
 yuyqa ärklig – yupqa narsa
 türk bodun – turk xalqi
 sāmiz buqa – semiz buqa
 turuq buqa – turuq buqa
 äki ülügi – ikki boʻlagi
 üçägün qabsap – uchovlab yopirilib
 anta saqıntım – shunday oʻyladim
 yäti yigirmi sünüşdi – oʻn yetti bor jang qildi
 qizim qanım – qizil qonim
 qara tärım – qora terim
 yobalo intimiz – qiynalib indik

Yuqoridagi misollar predmetni ham harakatni holatini ham ifodalagan. Birliklarga eʼtibor berganimizda ularning sifat+ot, son+ot, olmosh+ot, ravishdosh+feʼl, son+feʼl qolipida ekanligini koʻramiz. . Ushbu soʻz birikmalari tobe bogʻlanishning aniqllovchili turini hosil qilyapti: tobe soʻz aniqllovchi soʻrogʻiga javob boʻlgan. Keyingi birikmaning turiga misollar:

qağan qışdım – xoqonni qistadim
 käyik yäyü – kiyik yeb
 qıtanığ ölürtäci – qıtanni oʻldirajak
 idi yoq qısalım – egasini yoʻq qilaylik
 ötünçümin äsidüp – oʻtinchimni eshitib
 ögüzkä tüşdi – daryoga tushdi
 sü yorıtdım – lashkarni yoʻlga soldim
 yurtida yatuqalır ärti- yurtida yengilib qolar edi

qağanima ötüntim – xoqonimga o'tindim

Aq tärmäl kächä – Aq tarmalni kechib

at uza bintura – otga mindirib

qariğ sökdim – qorni kechdim

banaru anča ayıdmıs – menga aytib yuboribdi

Yuqoridagi so'z birikmalarni bog'lovchi vositalar sifatida bitigda kelishiklar, kam hollarda ko'makchilar ishtirok etgan. Sintaksis qoidalariga ko'ra bu so'z birikmalari qolipi ot+fe'l, olmosh+fe'l ko'rinishida kelgan. Kelishiklar ko'p hollarda belgili holda qo'llangan.

Körüg sabı – ko'ruvchining xabari

bänin bodunum – mening xalqim

arığ obutı – pokning uyati

bän ök – mening o'zim

bärtim ök – men o'zim

Va oxirgi turdagi misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tobe so'z tarkibidagi qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanganiga guvoh bo'lamiz.

Shunday qilib, hozirgi davr tilshunosligimizdagi sintaktik xususiyatlar qanday dasturul amal bo'lsa, qadimgi davrdagi bitiktoshlardagi aloqalar ham grammatik mezonlarga mos keladi. So'zni so'zga bog'lovchi vositalar o'sha davrdan mavjud ekanligi bois, so'z birikmalarini turlarga ajratishda, bir-birini o'rnida qo'llashda, ergash va bosh so'zni belgilashda qiyinchilikka duch kelmaymiz. To'nyuquq bitiktoshi til qurilishida xizmat qilgan vositalarni ildizlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi.-Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. –B 224.
2. Фуломов А., Асқарова М. Хозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). -Тошкент: „Ўқитувчи“, 1965.- Б 316.
3. Sodiqov Q. Eski turkiy bitiglar. -Toshkent, 2009. 17-30-b.